



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
KATTAQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING
FARMOYISHI**

Kattaqo'rg'on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2023 - yil 17 - fevral

15-7-96-F/23

Kattaqo'rg'on tuman hokimligi

Davlat xaridlarini tanlash bo'yicha xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 20- va 78-moddalariga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

1.Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo'yicha komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Doimiy tanlov komissiyasi zimmasiga ish, xizmatlar va tovarlar xarid qilishda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda ish, xizmatlar va tovarlar yetkazib beruvchi tashkilot yoki korxonalarning eng yaxshi takliflarini elektron shaklda o'rgangan holda haqqoniy qaror chiqarish yuklatilsin.

3.Kattaqo'rg'on tumani hokimligi hisobxonasiga ish, xizmatlar va tovarlarni xarid qilishda e'lon, auksion savdo va konkurslarning Respublika tovar-xomashyo birjasi elektron portaliga joylashtirish, shartnomalarni savdo natijalari ichki tanlov komissiyasi qaroriga asosan tuzish, g'aznachilik tuman bo'linmasiga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim qilish hamda g'aznachilik ro'yxatidan o'tgandan so'ng to'lovlarni amalga oshirish yuklatilsin.

4.Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi v.b.



J.Nasriddinov

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining
2023 yil 17 fevraldag'i
15-7-96-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

Davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi

Nº	FISh	Amaldagi lavozimi	Komissiyadagi vazifasi
1	N.Jo‘lmatov	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rribbosari – iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i	Komissiya raisi
2	B.Normurodov	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rribbosari bosh mutaxassisi	Komissiya kotibi
3	L.Raxmonov	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rribbosari	Komissiya a’zosi
4	K.Ahmedov	Tuman hokimining o‘rribbosari, investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i	Komissiya a’zosi
5	D.Ismailov	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rribbosari	Komissiya a’zosi
6	S.Djumayeva	Tuman hokimining o‘rribbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i	Komissiya a’zosi
7	Sh.Mahkamov	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy- ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rribbosari bosh mutaxassisi	Komissiya a’zosi
8	L.Abduqaxxorov	Yoshlar agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i	Komissiya a’zosi
9	O.Neyazov	Tuman hokimligi bosh hisobchisi	Komissiya a’zosi

Izoh: komissiya raisi va a’zolari lavozimidan ozod etilgan boshqa ishga o’tgan taqdirda yangi tayinlangan yoki vaqtincha vazifa bajaruvchi xodim komissiya raisi va a’zosi sifatida faoliyatini davom ettiradi.